



## MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA O'YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOSLIGI

**Fozilova O.**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Omonova Madinaxon Juma qizi**

FarDU, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-May 2023 yil

Ma'qullandi: 18-May 2023 yil

Nashr qilindi: 22-May 2023 yil

### KEY WORDS

*kichik yosh, o'rta guruh, tarbiyachi, mashg'ulotlar, jamoa, navbatchilar, rejim, harakatli o'yinlar;*

### ABSTRACT

*Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy va yetakchi faoliyatlaridan biri o'yindir. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiluvchi o'yinlarning o'ziga xosligi batafsil yoritib berilgan.*

Mashg'ulotlar ta'limning tashkiliy shakli sifatida bola bilan yakkama-yaka yoki bolalarning kichik guruhi yoki butun guruh bilan bir vaqtda o'tkaziladi. Mashg'ulotlarni uyushtirish, shakli, ularning mazmuni bolalarning rivojlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Mashg'ulotlar har kuni bolalar bilan bedorlik chog'ida o'tkaziladi.

Kichik yosh va o'rta guruhlardagi bolalar hayotini tashkil etish bolalarning tegishli yosh xususiyatlari hamda har tomonlama va uyg'un tarbiyalash maqsadiga muvofiq keluvchi turli tarbiya vositalarini qo'llash va oqilona birlashtirish orqali amalga oshiriladi.

O'rta guruhda hayotni to'g'ri tashkil etish bolalarning o'sgan mustaqilliklari va o'z-o'zlarini uyushtirish ko'nikmalariga tayanadi.

O'yinda bolalar stol va stullari, o'yinchoq va qo'llanmalar uchun shkaflar bo'y-yosh normativlariga ko'ra tanlanadi va ularga kelish bolalar uchun qulay bo'ladigan qilib joylashtiriladi. Kichik guruhning o'yin xonasida o'yin uchun bir necha burchaklar jihozlanadi, yirik o'yin qo'llanmalari qo'g'irchoqlarning kiyimlari uchun shkaflar, plita, dazmollash taxtasi ularga ikki-uch bola bir vaqtda kela oladigan qilib joylashtiriladi.

O'rta guruhning o'yin xonasida asosiysi bir necha zonalar bo'lishidir: masalan, birinchi o'yin zonasida tokchali shkaf qo'yilib, unga qo'g'irchoq bilan o'ynashda kerak bo'ladigan hamma narsa joylanadi. Ikkinchi o'yin zonasi qurilish materiallari uchun. Bu yerga qurilish materiallari uchun shkaf joylashtirilib, qurilish uchun joy ajratiladi. Kitoblar va stol-bosma o'yinli mashg'ulotlar uchun esa o'yin zonasidan chetroqda, osoyishtaroq joy ajratiladi. Shundan so'ng bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga mo'ljallangan materiallar joylashtiriladi. Turli xil bilish faoliyatini uyushtirish, shuningdek bolalarni mehnatga odatlantirish maqsadlarida tabiat burchagi jihozlanadi: bunda baliqli akvarium, qushlar solingan qafas va mayda jonivorlar qo'yilgan jihoz va turli o'simliklar joylashtiriladi.

Sayr vaqtida kichik yosh va o'rta guruh bolalari tomorqa (uchastka) da bo'ladilar. Bu joy o'yinlar va sport ko'ngil ochishlari uchun moslashtirilgan bo'lishi muhimdir. Olib

chiqiladigan o'yinchoqlarni joylashtirish uchun stol, o'rindiqli qo'yiladi, suv va qum o'yinlari uchun qumxona, rezervuar va shu kabilari qilinadi.

Kun tartibini uyushtirish. Guruhlardagi to'g'ri kun tartibi to'rt va besh yoshli bolalar hayotining rejimi bilan belgilanadi. Har bir rejim jarayoni bolalarning yosh imkoniyatlaridan kelib chiquvchi ma'lum davomiylikka egadir.

Kichik yosh guruhi bolalari turmush faoliyatida unchalik mustaqil emasliklari uchun barcha rejim jarayonlarini o'tkazish qoidasi bir faoliyat turidan ikkinchisiga utishni tarbiyachi bolalar bilan birga uyushtiradi va o'tkazadi. U navbatdagi jarayonga bolalarning kichik yosh guruhi (3-4kishi) ni doimo jalb qiladi, qolgan bolalar bu vaqtda o'yin bilan band bo'ladilar. Tarbiyachi sayrga chiqish uchun kiyinish va ovqatlanishga tayyorlanishdagi yuvinishga ko'pincha bu malakalarni yaxshi egallamagan hamda bu ishlarga boshqalarga nisbatan ko'proq vaqtni sarflaydigan bolalarni, shuningdek shu vaqtda band bo'lmagan, berilib o'ynayotgan bolalarni jalb qiladi.

Tarbiyachi, shuningdek, bolalarga bir rejim jarayonidan ikkinchisiga o'tishlari va ularni bajarishlarida yordam beradi. Bunda tarbiyachining bolalar bilan to'g'ri muloqot shakli, o'yin ustalari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Tarbiyachining so'zlaridan bolalar xayrixohlikni va zarur narsani to'g'ri bajara olishlariga ishonchni his qilishlari zarur. Tarbiyachi ovozinin ohangi hech qachon bolalarning ruhini tushurmasligi, tashabbuslarni bo'g'masligi kerak, bolalar tarbiyachining iltifotiga va qo'llab -quvvatlashiga ishonishlari kerak.

Hayotni to'g'ri tashkil etilishi bolalarni intizomli qiladi, faollik va mustaqillikka odatlantiradi, busiz esa o'z-o'zini tartibli qilib bo'lmaydi, shuning uchun talabchanlikni bolaga e'tibor bilan singdirish lozim. Rejim jarayonining har kuni takrorlanishi, kichikintoy uchun qulay hayot maromi bolalarda harakatlarni almashlashga tez kirishib ketish ko'nikmasini tarbiyalaydi, yaxshi kayfiyatning yuzaga kelishiga yordam beradi.

Bolalar hayotini to'g'ri tashkil etish, ularni bir butun tarzda tarbiyalashni tashkil etish maqsadlarida har ikkala guruh bolalarini turmush mehnatiga, o'zo'ziga xizmat ko'rsatishga jalb qilinadi. Kichik yoshdagi bolalarning mustaqilliklarini, umumiy sur'atda harakat qila bilishlarini aynan o'z-o'ziga xizmat, madaniy-gigienik malakalarini egallash belgilaydi. Kichik guruhda bolalarning o'z-o'ziga xizmatlarini tashkil etish tarbiyachidan doimiy e'tiborini va turli metodlardan foydalanishni talab qiladi. Bolalarga rejim bo'yicha yashash, bir rejim jarayonidan ikkinchisiga osoyishta o'tish odatlantirilgan ekan, tarbiyachi bolalarning mustaqilliklarini harakatlarni ko'rsatish va tushuntirish orqali rag'batlantiradi. O'z-o'ziga xizmatni uyushtiradi, u bolalarga mehnatni o'yindan farqlashni o'rgatadi. Pedagog eng avvalo mehnatning maqsadini bolalarga o'qib oladigan tarzda tushuntiradi, ularning maqsadga muvofiq ish tutishlariga erishishga harakat qiladi. Ertalabki qabul, nonushtaga tayyorlanish, nonushta vaqtida va barcha rejim jarayonlari davomida tarbiyachi hamda enaga harakat usullarini ko'rsatadilar va aytadilar, bunda ular mazkur harakatlarni bajarishga yo barcha bolalarni, yo faqat bu harakatlarni bajara olmaydiganlarni jalb qiladilar. Tarbiyachi ko'pincha ayrim bolalarga ularning ushbu ishlaridagi mavjud tajribalarini nazarda tutib yuvinishlariga, yechinib kiyinishlariga va shu kabilarga yordam beradi.

Shunday qilib tarbiyachilar bolalarga o'z-o'ziga xizmatni har kuni mashq qildirib, har bir bolada mehnatning bu turdagi mustaqilligini tarkib toptiradilar. Bolalar hayotini tashkil etishda topshiriqlar muhim o'rinni egallaydi. Bolalarga topshiriqni to'g'ri bajarishni o'rgatish uchun tarbiyachi bolalarga beradigan topshiriqlarni oldindan tanlab ajratadi. Kun davomida

tarbiyachi bolalarga topshiradigan jamoa va ayrim bolalar uchun zarur hamda foydali bo'lgan ko'plab ishlar topiladi.

Topshiriqlarni tashkil etishda ularning mazmunini, mumkin bo'lgan bajarish usullarini, ularni kichkina bolalar uchun tushunarligini to'g'ri aniqlash kerak.

Bolalarning qo'llaridan keladigan mehnatlarini tashkil etishda o'rta guruhda, navbatchiliklarga katta o'rin beriladi. Yil boshida tarbiyachilar oshxona bo'yicha navbatchilarning ishini, yilning ikkinchi yarmidan esa mashg'ulotlarga tayyorlanishga oid ishlarni tashkil etadilar. Avval tarbiyachi bolalarga navbatchilarning vazifalarini tushuntiradi, ularning ish usullariga o'rgatadi (ayniqsa dasturxon yozishda), so'ngra tarbiyalanuvchilar harakat izchilligini qanchalik o'zlashtirganliklarini hamda qo'llanma va materiallarni saqlanish joyini bilishlarini tekshiradi. Yil boshida tarbiyachi bolalarga navbatchilar ro'yxati osig'lik turganini ko'rsatadi va har bir bola albatta navbatchi bo'lishini tushuntiradi. Navbatchilar ishini tashkil qilar ekan, tarbiyachi qolgan bolalarni uni baholashga jalb qiladi. O'rta guruhda tarbiyachi vaqti vaqtida ertalabki yoki kechki sayr davomida uchastkada hamkorlikdagi mehnatini uyushtiradi (kuzda to'kilgan barglar yig'ib olinadi, qishda qortepa qilishda yordamlashadi). Jamoa mehnatda bolalarning aniq faoliyatlari va har bir bola tomonidan mehnatning umumiy natijasini anglashi muhimdir.

O'yinlar va ularning bolalar hayotini tashkil etishdagi o'rni. Kun tartibida o'yinlarga ajratiladigan muhim o'rin, ularning bolalarni har tomonlama tarbiyalash, bolalar jamoasini tarkib toptirishdagi o'rnidan kelib chiqadi. O'yinlarda bolalar faoliyat va muloqotga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradilar.

Bolalar hayotini to'g'ri tashkil etish uchun:

Kun tartibida ko'rsatilgan vaqtda o'yinni avj oldirish uchun sharoit yaratish, bolalarning o'yin faoliyatlarini rag'batlantirish va rivojlantirish; Bolalarning o'yinlariga xilma-xil metod, usullarini qo'llanib, bolalarning yosh va yakka xususiyatlarini hisobga olib rahbarlik qilish kerak. Bolalar ertalab bog'chaga kelishlari bilanoq o'yinni boshlaydilar.

Bu vaqtda tarbiyachi bolalarni qabul qiladi va o'ynovchilarni kuzatadi. Bu o'rinda maktabgacha bolalar o'z ehtiyojlarini mumkin qadar to'liq ifodalay oladigan o'yinlarga alohida etibor berishlari kerak. Chunki bolalarda hali murakkab o'zaro munosabatlar paydo bo'lmaydi. O'yin yakka tabiatiga ega bo'lishi mumkin. Yaxshi o'zlashtirilgan o'yinchoqlar bilan ikki-uch bola birga o'ynaydi. Kun davomida tarbiyachi o'yin vaziyatini yaratadi: didaktik o'yinchoqlar va mayda qurilish materiallarini bu maqsadlarda alohida ajratilgan stollarga joylashtiriladi, syujetli-rolli o'yinlar uchun o'yinchoqlarni, yirik qurish yasash o'yinchoqlarni polga qo'yadi. Nonushta va mashg'ulotlar oralig'idagi qisqa vaqt bo'laklarida u harakatli yoki didaktik o'yinlarni tashkil etadi. Harakatli o'yinlar taqlid tusida bo'ladi: bolalar o'zlariga tanish jonivorlarning bir-ikki harakatini qayta ifodalab beradilar. Tarbiyachi bolalarga harakatni bir vaqtda ishoraga ko'ra bajarishni odatlantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent, 1998 yil.
2. Ta'lim to'g'risidagi qonun. Toshkent, 1997 yil
3. "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi T.: O'zbekiston 2010 y
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat talablari. Toshkent
5. Mirjalilova S.M, Rasulova T, "Bolajon" tayanch dasturi. Toshkent 2010y

6. O.Xasanboeva va boshqalar “Oilada barkamol avlod tarbiyasi” T: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2010 yil
7. SH.A.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika” darslik T.: “Fan va texnologiya”, 2012 y
8. Negaeva V.G. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatga tayyorlash”, Toshkent 1985 yil.
9. Loginova V.I. “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi”, Toshkent, O'qituvchi 1991 yil.
10. Sobirjonovich S. I. EASTERN THINKERS' VIEWS ON EVERYWHERE EDUCATION OF CHILDREN //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 309-314.
11. Soliyev I., Ergasheva D. OUR FAVORITE WAYS TO TEACH FAIRY TALES //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 338-342.
12. Ergasheva D. O 'ZBEK XALQ ERTAKLARINING TURLARI VA ULARNING TASNIFI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 22.

